ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

УДК 631.331

QOVOQ URUG‘LARINING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI ANIQLASH NATIJALARI

G.J. Ablatova

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti doktoranti

S.U. Allaniyazov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti dotsenti, texnika fanlari nomzodi

RESULTS OF DETERMINATION OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF PUMPKIN SEEDS

G.J. Ablatova

Doctoral student of the Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

S.U. Allaniyazov

Associate Professor of the Nukus Mining Institute under the Navoi State University of Mining and Technology, Candidate of Technical Sciences

Annotatsiya. Poliz ekinlarini yetishtirishda urug‘larni o‘z vaqtida va sifatli ekish muhim texnologik operatsiyalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu texnologik jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish, tahlil natijasi bo‘yicha mavjud ekish apparatlarini va uning muhim qismlarini takomillashtirish va ekish mashinalarining yangi ishchi qismalrini yaratish, urug‘larning fizik-mexanik hususiyatlariga (vazni, o‘lchamlari, statik ishqalanish burchagi) asoslangan holda olib boriladi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, urug‘ning fizik-mexanik xossasi, urug‘, urug‘ ekish mashinasi.

Аннотация. Своевременный и качественный посев семян является одной из важных технологических операций при выращивании бахчевых культур. Изучение и анализ этих технологических процессов, совершенствование существующих высевающих аппаратов и их важных частей по результатам анализа и создание новых рабочих частей высевающих машин основывается на физико-механические свойства семян (вес, размеры, угол статического трения).

Ключевые слова: сельское хозяйство, физико-механические свойства семян, семена, сеялка.

Abstract. In the cultivation of melons, timely and high-quality sowing from seeds is crucial. This is one of the most important technological operations for melon crops. The study, analysis of these technological processes, based on the results of the analysis, the improvement of existing seeding apparatuses and their important parts and the creation of new working parts of seeding machines are carried out based on the physical and mechanical properties of seeds (weight, dimensions, angle of static friction).

Keywords: agriculture, physical and mechanical properties seeds, seeds, seeding machine.

Kirish. Zich tuproqli yerlarda dehqonchilik ishlarini olib borish uchun agregatlarning dalada bir necha bor takroran ishlashi talab qilinadi. Shu sababli, Qoraqalpog‘istonning tuproq-iqlim

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

sharoitiga mos, tuproqni ekishga tayyorlash va bir vaqtning o‘zida ekish ishlarini amalga oshira oladigan texnik vositalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Uzoq yillar davomida almashlab ekish tizimining qo‘llanilmasligi va deyarli organik o‘g‘itlardan foydalanilmaganligi sug‘oriladigan dala tuproqlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, tuproqning tuzilishi yomonlashdi va bu holat uning agrofizik hamda fizik-mexanik xossalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot ob’ekti va metodikasi. Tadqiqot uchun qovoqning «Shirintoy» va «Non kadi» navlari urug‘lari tanlandi. Urug‘ vaznini o‘lchash uchun tanlash uslubi urug‘larning barcha namunalari uchun bir xil umumiy qabul qilingan uslublar yordamida aniqlandi. 3 kilogrammli o‘rtacha namunadan xochsimon bo‘linish usuli bilan 200-300 dona urug‘ ajratib olindi va o‘lchanib, elektron tarozida tortildi. Urug‘larning o‘lchamlari 0,01 mm aniqlikdagi elektron mikrometr bilan o‘lchandi. Statik ishqalanish koeffitsienti qiya taxta yordamida 4 ta materialda, polietilenda, bo‘yalgan po‘latda, rangsiz po‘latda va diskda aniqlandi.

Ilimiy tadqiqot natijalari. Qovoq urug‘lari katta kichikligi jihatidan katta, o‘rtacha va kichik hillarga bo‘linadi. Rangi oq, sarg‘ish, sariq, jigarrang, qizil, qora, kul rang bo‘ladi. Urug‘larning sirtida mayda yoki yirik dog‘lardan jimjimasi bo‘ladi, g‘adir-budurligi, ba‘zan yoriqlar bilan qoplangan, shuningdek, urug‘ning soni kam yoki ko‘pligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Qovoqning «Shirintoy» va «Non kadi» navlari urug‘larining fizik-mexanik xossalarini o‘rganish bo‘yicha elektron mikrometr va tarozidan foydalanib o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida urug‘larning geometrik o‘lchamlari (uzunligi, eni, qalinligi va 1000 dona urug‘ vazni) keng oraliqda o‘zgarishi va cho‘zilgan shaklga egaligi aniqlandi. Ularning o‘rtacha va ekstremal o‘lchamlari 1-jadvalda keltirilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, urug‘larning katta, o‘rtacha va kichik bo‘lganidek urug‘larning katta kichik o‘lchamlari bo‘yicha farqlar mavjud bo‘lib, ular bir xil nav ichida ham bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va ular uzunligi bo‘yicha ko‘proq va qalinligi bo‘yicha kamroq darajada farq qiladi.

1-jadval

Qovoq urug‘larining geometrik o‘lchamlari

Ko‘rsatkichlar	**Navlar bo‘yicha qiymati**	
	«Shirintoy»	**«Non kadi»**
Uzunligi, mm		
o‘rtacha	17,80	16,10
minimal	11,111	12,39
maksimal	24,5	19,82
Eni, mm		
o‘rtacha	12,12	9,035
minimal	9,483	7,02
maksimal	14,76	11,05
Qalinligi, mm		
o‘rtacha	5,08	2,76
minimal	3,365	1,81
maksimal	6,802	3,71
1000 dona urug‘ vazni, g	360,07	127,74

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Urug‘larni ekish jarayonida urug‘ ekuvchi disklar, urug‘ yo‘naltiruvchisi bilan o‘zaro ta’sir qilafi. Shu bilan birga, texnologik jarayonga katta ta‘sir ko‘rsatadigan aloqa (to‘qnashish) nuqtalarida statik ishqalanish va harakat ishqalanish kuchlari paydo bo‘ladi. Shu sababdan qovoq urug‘ining har xil materiallar yuzasi bo‘yicha ishqalanich koeffitsientlari ham o‘rganildi.

Xulosalar

O‘rganish natijalariga ko‘ra Qovoqning «Shirintoy» va «Non kadi» navlari urug‘larining namligi 15 % bo‘lganda o‘rtacha statik ishqalanish koeffitsientlari polietilenda mos ravishda 0,50 va 0,59, bo‘yalgan po‘lat uchun 0,54 va 0,61, bo‘yalmagan po‘lat uchun 0,60 va 0,73 va diskda 0,39 va 0,49 bo‘lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шапров. М.Н., Мартынов. И.С. Определение некоторых физико-механических свойств семян арбуза и почвы. Известия нижневолжского агроуниверситетского комплекса. №4 (12) 2008 г.
2. Евченко А.В. Анализ физико-механических свойств семян зерновых культур на исследование физико-механических свойств проращенных семян тыквы». Вестник КрасГАУ. №8, 2016 г.
3. Ф.У.Суванова, М.М. Ширинбоев. Определение технологических свойств семян арбуза. Технические науки. 1 (94) январь, 2022 г.
4. А.Г.Пастухов, А.А.Добрицкий, Д.Н.Бахарев и С.Ф.Вольвак, Исследование физико-механических свойств семян тыквы как объекта сушки, Сельскохозяйственные машины и технологии •Том 18 • N1 •2024 г.